

ZAMONAVIY KASBLARNI O'RGANISHDA ELEKTRON DARSLIKLARNING AFZALLIKLARI

Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta oqituvchisi.

baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

Yo'ldoshev Azizbek Najmiddin o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pediatrya fakulteti 1-kurs talabasi

ayoldoshov81@gmail.com

Zayniyev Diyorbek Nurullo o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Davolash fakulteti 1-kurs talabasi

zayniyevdiyorbek9@gmail.com

Qo'zimurodov Shaxriyor Baxtiyor o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Davolash fakulteti 1-kurs talabasi

shahriyorqozimurodov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarga axborot texnologiyalari fanini o'qitishda talabalarning kreativ fikrlashini shakllantirish, tibbiy ta'limda zamonaviy innovasion texnologiyalar “**ELEKTRON DARSLIKLAR**”dan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligi, ta'limni zamonaviy AKTlar va dasturiy vositalar asosida rivojlantirish va amalda qo'llanilishini takomillashtirish, e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ, AKT, tafakkur, iqtidor, ijodkor, qobiliyat, ta'lim, “elektron darslik”.

Kirish

Tibbiy ta'limda zamonaviy innovasion texnologiyalar “**ELEKTRON DARSLIK**”dan foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lum bir tajribalar to'plangan, ta'limni zamonaviy AKTlar va dasturiy vositalar asosida rivojlantirish va amalda qo'llanilishi dolzarb masaladir.

Shuning uchun o'qitishning ananaviy usullari eskirishini hisobga olib ularni AKTlar va dasturiy vositalarni qo'llagan holda “**ELEKTRON DARSLIKLAR**”dan

foydalanishni ta'limda qo'llash hamda kuzatuvlar va taxlillar asosida maqsadga erishiladi.

Ushbu yo'nalishda biz tomondan olib borilgan kuzatishlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, talabalarni Internet yordamida fanlarni o'zlashtirish jarayonida: bir toifa talabalar fanni to'laroq, chuqurroq o'zlashtirishsa, ikkinchi toifa talabalar aksi, talab darajada o'rganolmayotgani ma'lum bo'ldi[1].

Chunki, fanga doir maqbul variantdagi internet ma'lumotini tanlab olish uchun ko'plab vaqt mobaynida adabiyotlarni ko'rish, o'rganish zarur bo'ladi. Yuzaga kelgan holat darsdan keyin talaba va o'qituvchini hamkorlikda induvidial ko'proq ishlashini talab etmoqda.

Keltirilgan ko'rsatmalar asosida informasion axborot texnologiyasiga oid fanlar bo'yicha 2 yo'nalishda biz tomondan quyidagi tadqiqot ishlari amalga oshirildi:

- 1) tibbiyot kasb ta'limi yo'nalishi fanlariga kompyuter texnologiyasini qo'llashga doir ilmiy izlanishlar;
- 2) ijtimoiy va tibbiyot sohaga axborot texnologiyasini qo'llash yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar.

Bu tadqiqot ishlarimizdan asosiy maqsad: talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat edi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil ishlash va o'rganish faoliyatini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilg'or innovasion pedagogik texnologiyalardan hamda yangi avlod elektron video o'quv adabiyotlaridan foydalanishni talab etadi. Shu bilan birga bugungi kunda axborot va kommunikasiya texnologiyalarining kirib kelishi bilim uzatilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday shakllardan biri fanlarni elektron ta'lim zahiralari vositasida o'qitishdir. Elektron ta'lim zahiralari vositasida ta'lim berish pedagogik adabiyotlarda kompyuterli o'qitish texnologiyasi deb yuritiladi.

Elektron darslik vositalaridan foydalanishda talabalar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar katta miqdordagi topshiriqlarni tez bajarishga ulguradilar, yechimlar va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun sarflanadigan vaqtni tejaydilar;
- kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulotlar bajarish imkoniyatini beradi;
- talabalar bilimlarini kompyuterda test asosida tez va samarali nazoratdan o'tkaziladi hamda ularga baho beriladi.

Elektron darslik – dasturiy-uslubiy qo‘llanma bo‘lib, talabaga o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishiga yordam beradi hamda fanning mazmun mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma‘lumotlarni qarab chiqish va ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarni bajarishiga imkon beradi. Elektron darslik an’anaviy o‘qitish uslublari o‘rmini bosa olmaydi, biroq ularga qo‘shimcha ravishda, talabalarning amaliy misol va masalalar to‘plami bilan samarali ishlashlariga zamin yaratadi. Zamonaviy elektron darsliklarni yaratishdan ko‘zlangan maqsad, tibbiyot oliygohlarida qo‘llashning afzallik tomonlarini aks ettirish, balki zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalari hamda multimediya vositalarining imkoniyatlarini keng qo‘llashdan iboratdir[2].

O‘quv jarayonida mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda turli axborot ta‘lim resurslarni yaratishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Chunki, mustaqil ta‘lim asosan ta‘lim oluvchining mustaqil o‘rganishiga asoslangan o‘quv faoliyati hisoblanadi. Hozirgi davrda mustaqil ta‘lim uchun axborot ta‘lim resurslari yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Mustaqil ta‘lim olishda zamonaviy axborot texnologiyalari ya‘ni kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallar shu jumladan, elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta‘lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta‘lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma‘lum ma‘noda kutubxonalarini tashkil etish, ta‘limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat[3].

“Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta‘lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma‘lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi”. Demak, elektron darslik yaratishning asosiy maqsadi mustaqil ta‘lim olishga qaratilar ekan.

Elektron o‘quv adabiyotlarining amaliyotda qo‘llanilishi e‘tiborga olinganda elektron darsliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kuzatilmoqda:

- o‘rganilayotgan materialni an’anaviy o‘quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshitish va emotsional xotiralarga ta‘sir qilish yo‘llari bilan yetkazish orqali tushunishni yengillashtiradi;

- ta‘lim oluvchilarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtiriladi;

- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi;

- ishni chiroyli, aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon beradi;

- sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajaradi.

Hozirgi kunda elektron darsliklar yartishning 4 bosqichli kategoriyasi mavjud:

1 - bosqich elektron darsliklar bu gipermatn shaklida bo'lib, bunda o'quv materiallar bir-biri bilan giper murojaatlar orqali bog'lanadi. Unda ikki o'lchovli ko'rsatish qurollaridan, masalan suratlar, jadvallardan foydalanish mumkin.

2 - bosqichli elektron darsliklar o'zida qisman gipermatn va ikki o'lchovli animatsiyani jamlashtiradi. Bu turdagi elektron darsliklarni ko'pincha virtual stendlar deb atash mumkin.

3 - bosqichli elektron darsliklar o'zida bir vaqtda ham animatsiya, ham gipermatnni jamlashtirib, bu turdagi elektron darsliklar ovozlantiriladi. Ulardan multimedia vositalari orqali foydalanganligi uchun multimediyali elektron darslik deb atash mumkin.

4 - bosqich elektron darsliklar zamonaviy tarmoq texnologiyalari asosida yaratilib, masofaviy o'qitish mezonlariga mos bo'lishi shart[4].

Xulosa

Xulosa shundan iboratki, tibbiyotdagi texnik qurilmalarni ishlatishda kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish imkoni mavjud. Bu dasturlarni o'rganish uchun eng yaxshi vositalardan biri bu elektron qo'llanmalardir.

XXI asrda axborot kommunikatsion va IT texnologiyalar asrida darslarni, mustaqil ishlarni elektron darslik ko'rinishidagi shakli ta'lim tizimining samaradorligini oshiribgina qolmay, yurtimizga yetuk sifatli mutaxassis kadrlar yetkazib berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1].Turdimurodov B. et al. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI: ALOQA TARIXI, AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 140-146. <https://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/5208>

[2].Turdimurodov Bakhtiyor Kurbanovich , Forming Creative Thinking of the Teacher in Teaching Students in Information Technology. [Improving the Creative Skills of Vocational Education Teachers , Web of Synergy: International Interdisciplinary](#)

Research Journal: Vol. 2 No. 5 (2023): MAY

<https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/1666>

[3].Qurbonovich T. B. KASB TA'LIMI AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FANI O 'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIVLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH //Mirсанov UM, Jumaqulov K. Sh. – С. 83.<https://slib.uz/uz/edition/view?id=1913>

[4].Турдымуродов Б. Во'lajak kasb ta'limi o 'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini takomillashishi usullari va texnologiyalari //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 42-46.

<https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24637>